

## **“Yagonasan, muqaddas Vatan!” tanlovi**

☒ Oliy ta’lim muassasalari talabalarining Vatanga sadoqat, uning taqdiri uchun dahldorlik hissi bilan yo’g’rilgan, mazmunan teran, badiiy yetuk qo’shiqlar yaratishini rag’batlantirish hamda ularni xalqimizning ma’naviy mulkiga aylantirish maqsadida Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan “Oliy ta’lim muassasalari o’tasida “Yagonasan, muqaddas Vatan!” Respublika ko’rik-tanlovi o’tkazilib kelinmoqda.

Joriy yilning 9-iyul kuni O’zbekiston davlat konservatoriyasida tanlovning yakuniy Respublika bosqichi o’tkazildi. Ko’rik tanlovda 16 ta xududning Oliy ta’lim muassasalaridan kelgan iqtidorli yoshlар o’zaro bellashishdi. Mazkur tanlovning yakuniy bosqichiga bo’lgan tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib kelgan institutimiz Suv xo’jaligini tashkil etish va boshqarish fakulteti talabasi Dadarboev Muxriddin xam faol ishtirok etib respublika tanlovida 4-o’rinni qo’lga kiritdi.

Ko’rik-tanlov tashkilotchilari O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi, O’zbekiston Ta’lim,fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashining diplom, faxriy yorliq va esdalik sovg’alari, shuningdek, Vazirlik huzuridagi Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan ovoz yozish studiyasidan imtiyozli foydalanish huquqini beruvchi sertifikat bilan rag’batlantirildi.